



## PROBATSIIYA FAOLIYATINING BUGUNGI HOLATI

Askarova Elmira Polatovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20567837>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil

Ma'qullandi: 28-may 2026 yil

Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

### KEYWORDS

probatsiya, probatsiya nazorati,  
qayta jinoyatchilik, profilaktika,  
nazorat ostidagi shaxs, ijtimoiy  
moslashuv, bandlik,  
raqamlashtirish, jamoat  
xavfsizligi,  
huquqbuzarliklarning oldini  
olish, profilaktik ta'sir,  
probatsiya tizimi.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada probatsiya faoliyatining bugungi holati, uning tashkiliy-huquqiy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Xususan, probatsiya xizmatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish, nazorat ostidagi shaxslar bilan ishlash samaradorligini oshirish hamda qayta jinoyatchilikning oldini olish masalalari yoritilgan. Shuningdek, probatsiya tizimida mavjud muammolar, ayrim hududlarda nazorat va profilaktika ishlarining yetarli darajada tashkil etilmayotganligi, nazorat ostidagi shaxslarning bandligini ta'minlash va ijtimoiy moslashuviga oid dolzarb masalalar tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida probatsiya faoliyati samaradorligini oshirish, qayta jinoyatchilikni kamaytirish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirilgan.*

So'nggi yillarda probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur sharoitlar bosqichma-bosqich yaratildi. Tizimni mustahkamlash masalasiga kompleks yondashilgan bo'lib, avvalo shtat birliklari ajratilishi, moddiy-texnik bazaning kuchaytirilishi, shuningdek, normativ-huquqiy asoslarning takomillashuvi probatsiya bo'linmalarining imkoniyatlarini sezilarli oshirdi. Bu jarayon probatsiyaning faqat "hisobot yuritish" yoki "rasmiy hujjat to'ldirish" bilan cheklanmay, real nazorat, profilaktika hamda ijtimoiylashuvga yo'naltirilgan amaliy institut sifatida shakllanib borayotganini ko'rsatadi.

Probatsiya faoliyati natijador bo'lishi uchun avvalo xodimning kundalik ishini yengillashtiruvchi, nazorat va hisob yuritish jarayonini tezlashtiruvchi, ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni soddalashtiruvchi texnik vositalar muhim hisoblanadi. Shu ma'noda probatsiya bo'linmalariga transport va raqamli infratuzilma ajratilishi tizimning "maydondagi" samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, probatsiya bo'linmalariga 11 ta "Damas" rusumli xizmat avtomobili ajratilgani, 208 ta tuman-shaharlarning barchasiga elektron dasturlar bilan samarali ishlash imkonini beruvchi zamonaviy kompyuter va rangli printerlar yetkazilgani, shuningdek, 600 ta planshet xarid qilinib foydalanishga topshirilgani probatsiya xodimining manzilli nazorat hamda tezkor profilaktik ish olib borish imkoniyatini kengaytirdi.

Joriy yilda texnik ta'minotni yanada kuchaytirish bo'yicha rejalashtirilgan xaridlar ham probatsiya tizimi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi. Jumladan, yana 75 ta "Damas", 200 ta zamonaviy kompyuter va rangli printerlar xarid qilinishi ko'zda tutilgani probatsiya bo'linmalarining tashkiliy mustaqilligini va tezkorlik salohiyatini oshiradi. Bundan tashqari, xodimlarni alohida namunadagi 700 ta formali kiyim-bosh hamda 117 ta planshetlar bilan ta'minlash rejalari probatsiya xizmati nufuzi, intizomi va xizmat madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan amaliy qadam sifatida baholanadi. Chunki probatsiya xodimi bilan nazorat ostidagi shaxs o'rtasidagi muloqotda xizmat tartibi, aniq talabchanlik va tizimli yondashuv ko'p jihatdan xodimning kasbiy imiji, intizomi hamda ish qurollari bilan ta'minlanganligiga ham bog'liq bo'ladi.

Probatsiya faoliyati samaradorligida bino-inshootlarning holati ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bo'linma binolari shunchaki ish joyi emas, balki hujjatlashtirish, qabul, suhbat, rehabilitatsiya yo'nalishidagi tushuntirish ishlari, profilaktik uchrashuvlar kabi ko'plab jarayonlar amalga oshiriladigan muhitdir. Shu bois probatsiya binolarining 5 tasi mukammal ta'mirlangani, joriy yilda yana 10 tasi ta'mirlanishi belgilanganligi, shuningdek, Buxoro, Sirdaryo, Qashqadaryo va Farg'ona viloyati IIB hamda Sergeli tumani IIO FMB Probatsiya bo'limi binolari ta'mirlangani probatsiya xizmatining institutsional salohiyatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Probatsiya tizimining barqaror ishlashi, odatda, ikki ustunga tayanadi: birinchisi – qat'iy nazorat va javobgarlik, ikkinchisi – ijtimoiylashuv, tuzatish yo'liga kiritish va rehabilitatsiya. Shu ikki yo'nalish uyg'unlashgandagina "probatsiya"ning asl mazmuni ro'yobga chiqadi. Shuning uchun tizimda kutilayotgan yangiliklardan biri sifatida probatsiya xodimlari uchun qo'shimcha ustama to'lanadigan maxsus malaka darajasi joriy etilishi qayd etiladi. Bu, bir tomondan, xodimning rag'batini oshirsa, ikkinchi tomondan, ish sifati va natijadorlik bo'yicha talabchanlikni kuchaytiradi. Chunki rag'bat doimo mas'uliyat bilan birga kelganda tizim o'zini oqlaydi.

Shu bilan birga, yaratilgan sharoit va imkoniyatlar o'z-o'zidan natija bermaydi. Tizimda imkoniyat bo'lsa-da, ayrim hududlarda ish samaradorligi talab darajasida emasligi, "topshiriq bor, imkoniyat bor, lekin natija yo'q" degan keskin xulosa bilan ifodalanishi muammoning ildizi texnika yoki shtat masalasida emas, balki boshqaruv, intizom, nazoratni tashkil etish va mas'uliyat darajasida ekanini ko'rsatadi. Probatsiya – bu rasmiy hujjat to'ldirish emas, bu nazorat, profilaktika va javobgarlik tizimidir. Nazorat sust bo'lsa, intizom bo'lmasa, natija bo'lmaydi. Bu esa bevosita rahbar va mas'ul xodimning shaxsiy javobgarligi masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Probatsiya xizmatida natijani baholash mezonlari ham to'g'ri qo'yilishi kerak. Natija "qancha shaxs JIEMga qaytarildi" yoki "qancha shaxsga boshqa chora ko'rildi" degan ma'muriy ko'rsatkichlar bilangina o'lchanmasligi lozim. Asosiy baho – qancha shaxs ijtimoiylashdi, qancha shaxs tuzalish yo'liga kirdi, bandligi ta'minlandi, qayta jinoyat sodir etish xavfi kamaydi, degan ijtimoiy samaradorlik mezonlari bilan o'lchanishi kerak. Aynan shu yondashuv tizimda kim ishlayotgani va kim ishni sust olayotganini ochiq ko'rsatadi.

Probatsiya tizimi faoliyatida eng og'riqli masala – nazorat ostidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishdir. Bu vazifa probatsiya xizmati har bir xodimining eng asosiy xizmat vazifasi bo'lishi kerak. Chunki probatsiya nazorati mohiyatan "kuzatish" emas, balki xavf omillarini barvaqt aniqlash, profilaktik ta'sir ko'rsatish, cheklov va talablarning

bajarilishini real tekshirish, ijtimoiy muammolarni hal etishda hamkor tashkilotlarni safarbar qilish orqali qayta jinoyatning oldini olishga qaratilgan faol boshqaruvdir. Afsuski, ayrim hududlarda nazorat ostidagi shaxslar bilan ishlash tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmagani, profilaktik tadbirlar yetarlicha samara bermayotgani oqibatida qayta jinoyat sodir etish salmog'i hanzu yuqori bo'lib qolmoqda.

Mazkur muammoga vazir darajasida qat'iy e'tibor qaratilgani ham bejiz emas. Xususan, joriy yilning 23-fevral kuni Hurmatli Vazir tomonidan hududlarda yuzaga kelgan kriminogen vaziyat hamda jinoyatchilik holati bo'yicha asosli e'tirozlar bildirildi. Bu e'tirozlar, mazmunan, bir qarashda oddiy tanqiddek tuyulishi mumkin, biroq aslida tizimli muammoni fosh etadi: ayrim rahbarlar jinoyatning sabab va omillarini oldindan aniqlab, aql bilan, bilim bilan bartaraf etish o'rniga, eski qolipdan chiqa olmay, hanzu jinoyatning oqibatlari bilan ovora bo'lib yuribdi. Probatsiya esa oqibat ortidan yugurish emas, sababning o'ziga ishlash, xavfni oldindan ko'ra bilish, nazorat ostidagi shaxsning muammosini hal etish orqali jinoyatga qaytish ehtimolini pasaytirish demakdir.

Tanqidiy tahlil kuchaytirilishi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar har ikki kunda muhokama qilib borilishi belgilanishi ham tizimda intizom va natijadorlik talabini oshirishga qaratilgan. Shunga qaramasdan, qayta jinoyatlarni jilovlash bo'yicha topshiriqlar berilgan bo'lsa-da, so'nggi 3 kun ichida ayrim hududlar kesimida deyarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmagani qayd etiladi. Bu holat muammo ko'lami jiddiy ekanini anglatadi: nazorat ostidagi shaxs tomonidan qayta jinoyat sodir etilishi – probatsiya tizimi obro'si, jamiyat xavfsizligi va profilaktika samaradorligining bevosita indikatoridir.

Oqibatda, respublika bo'yicha 23–25-fevral kunlari probatsiya nazoratida turgan 11 nafar shaxs tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilgani alohida ta'kidlanadi. Hududlar kesimida eng ko'p qayta jinoyat Farg'onada 5 ta, Toshkent viloyatida 2 ta, Toshkent shahri, Namangan, Surxondaryo va Buxoroda 1 tadan qayd etilgan. Jinoyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda esa 3 ta fohishaxona saqlash, 2 tadan o'g'rilik, talonchilik, giyohvandlik, 1 tadan firibgarlik hamda pora berish bilan bog'liq qayta jinoyatlarga yo'l qo'yilgani ko'rsatiladi. Eng achinarlisi, qayta jinoyatlarning 7 tasi og'ir turdagi jinoyatlardan iborat ekani holatning ijtimoiy xavfliligini yanada oshiradi.

Muammoni hal qilish uchun muhokama qilinadigan yo'nalishlar ham aniq belgilab qo'yilgan: birinchidan, nazorat ostidagi shaxslar tomonidan sodir etilgan qayta jinoyatlar va hukmlar ijrosi bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklar; ikkinchidan, axloq tuzatish ishlari jazosi o'tayotgan ishsiz nazorat ostidagi shaxslar hamda davlat daromadiga chegirma mablag'lari undirish ahvoli; uchinchidan, probatsiya bo'linmalarida raqamlashtirish holati hamda vakantlarni jamlash masalalari. Ushbu uch yo'nalish aslida bitta markaziy g'oyaga borib taqaladi: nazoratning sifatini oshirish va ijtimoiylashuvga real erishish.

Ma'ruza mazmunida qayd etilgan raqamlar ham hududlarda ish tizimi bir xil darajada emasligini ko'rsatadi. Nazorat ostidagi shaxslar tomonidan sodir etilgan 55 ta qayta jinoyatning 39 tasi yoki 71 foizi atigi uch hudud – Farg'ona (22), Toshkent viloyati (9) va Namangan (8) hissasiga to'g'ri kelgani bu hududlarda nazorat va profilaktika mexanizmlari qayta ko'rib chiqilishini talab etadi. Qolgan hududlarda ham qayta jinoyatlar qayd etilgan: Toshkent shahri (5 ta), Qashqadaryo (3 ta), Andijon, Surxondaryo va Buxoro (2 tadan), Jizzax va Samarqand (1 tadan). Bu raqamlarning o'ziyoq muammo faqat bir-ikki joyning kamchiligi emas, balki tizimning ayrim bo'g'inlarida boshqaruv va ijro intizomi sustligini bildiradi.

Qayta jinoyat sodir etgan 55 nafar shaxsning tarkibi ham e'tiborga molik: 22 nafari yoshlar, 4 nafari ayollar, 5 nafari voyaga yetmaganlar, 38 nafari ishsizlar ekani ko'rsatiladi. Demak, probatsiya nazoratida "bandlik" masalasi eng asosiy profilaktik omil bo'lib chiqmoqda. Sabablar tahlilida ham bu yaqqol ko'rinadi: 10 tasi tuzalish yo'lga o'tmagani, 38 tasi bandligi ta'minlanmagani, 7 tasi spirtli ichimlik yoki giyohvand modda ta'siri ostida jinoyat sodir etgani qayd etilgan. Bu uch sabab probatsiya amaliyotida uchta bosh yo'nalishni talab qiladi: birinchisi – xulq-atvorni tuzatishga qaratilgan tizimli nazorat va tarbiyaviy ta'sir; ikkinchisi – bandlikni ta'minlash bo'yicha sektoral hamkorlik; uchinchi – alkogol va giyohvandlik omili bo'yicha tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralari.

Hududlar kesimida qayta jinoyatlar tuman-shaharlar bo'yicha ham aniq ko'rsatilgan: Farg'ona viloyatining Farg'ona shahrida 11 ta, Dang'arada 3 ta, Rishtonda 2 ta; Namangan viloyatida Davlatobod va Yangiqo'rg'onda 2 tadan; Toshkent viloyatida Yangiyo'lda 2 ta. Bunday "nuqtaviy" yuqori ko'rsatkichlar o'sha hududlarda nazorat ostidagi shaxslar bilan ishlash amaliyoti qanday yo'lga qo'yilgani, profilaktik reja qanchalik real ekani, tashriflar, tekshiruvlar va hamkorlik tadbirlari qay darajada o'tkazilayotganini qat'iy audit qilishni talab etadi.

Rahbarlar mas'uliyati masalasi ham bevosita ko'tarilgan. Farg'ona, Namangan, Toshkent viloyati mas'ullari oldiga ochiq savollar qo'yilgan: nega nazorat ostidagi shaxslar bilan ish tashlab qo'yilgan, nega qayta jinoyat salmog'i oshgan, hududda nechta nazoratdagilar bor, qanchasi boshqa hududlarga nazoratsiz chiqib ketib jinoyat sodir etganini bilasizmi? Bu savollar formal emas. Chunki nazoratsiz chiqib ketish – nazoratning eng sust nuqtasi, tizimdagi "teshik"dir. Ma'lumot sifatida keltirilgan raqamlar ham jiddiy: 2025 yilda Farg'onadan 51 nafar, 2026 yil 2 oyida 3 nafar; 2025 yilda Namangandan 45 nafar, 2026 yil 2 oyida 1 nafar; 2025 yilda Toshkent viloyatidan 106 nafar, 2026 yil 2 oyida 2 nafar nazoratdagi shaxslar boshqa viloyatlarga chiqib jinoyat sodir etgani qayd etilgan. Demak, nazoratning geografik kuzatuv, safar cheklovlari va tekshiruv mexanizmlari kuchaytirilmasa, probatsiya "qog'ozdagi nazorat" bo'lib qolish xavfi yuzaga keladi.

Joriy yil 2 oyida sodir etilgan 55 ta qayta jinoyat turlari bo'yicha tahlil ham muammoni aniqroq ochadi. Jumladan, 11 ta o'g'rilikning eng ko'p salmog'i Farg'onada 6 ta, 6 ta firibgarlikning eng ko'p qismi Farg'onada 4 ta, 19 ta giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning eng ko'pi Farg'onada 7 ta, Toshkent viloyatida 4 ta, Namanganda 3 ta, Toshkent shahrida 2 tadan sodir etilgani ko'rsatiladi. Bu esa jinoyat turlari bo'yicha hududiy "profil"ni ko'rsatadi va probatsiya profilaktikasi ham bir xil qolipda emas, aynan shu profilga moslashgan, maqsadli chora-tadbirlar asosida yo'lga qo'yilishi lozimligini anglatadi.

Keltirilgan misol – Tayloq tumanida 18-fevral kuni sodir etilgan talonchilik va tovlamachilik holati probatsiyada nazoratning mohiyati qanchalik "real tekshiruv"ga bog'liqligini ko'rsatadi. U yerda sud cheklovi mavjud bo'lsa-da, taqiqlarga qaramasdan jinoyat sodir etilgan. Eng achinarli tomoni shundaki, mahalla yettiligi, oila va yoshlar yetakchi xodimlari holatdan xabardor bo'la turib, birorta ham profilaktik tadbir o'tkazmagan, xonadon faoliyatini o'rganmagan, amaliy ko'mak bermagan. Bu esa probatsiya samaradorligi faqat bo'linma xodimiga emas, balki mahalla, profilaktika inspektori, tezkor xizmat, ijtimoiy xizmatlar kabi hamkor subyektlarning real ishlashiga ham bevosita bog'liqligini isbotlaydi.

Samarqand misolida esa probatsiya nazoratidagi shaxslar og'ir jinoyatlarga moyil guruh bo'lib harakat qilganiga qaramay, ayrim birlashtirilgan xodimlar oxirgi marta yanvar oyi

mobaynida atigi bir marta “nomiga suhbat” o‘tkazgani qayd etiladi. Bu holat probatsiyaning mazmuni buzilayotganini anglatadi: probatsiya “qog‘ozda suhbat” emas, balki muntazam tekshiruv, cheklovlar ijrosi monitoringi, xavf omillarini baholash va tezkor hamkorlikdir. Shu sabab, ayrim hudud rahbarlariga 1-chorak yakuniga qadar ijobiy o‘zgarish bo‘lmasa, qat’iy choralar ko‘rilishi haqida ogohlantirish berilgani tizimda natijadorlik talabining keskin kuchaytirilayotganini bildiradi.

1. Umuman olganda, probatsiya faoliyatining bugungi holati ikki qutbli manzarani ko‘rsatadi: bir tomonda – sharoit, texnika, raqamlashtirish, transport, ta‘mir va rag‘bat kabi resurslar ajratilib, institut mustahkamlanmoqda; ikkinchi tomonda esa – ayrim hududlarda boshqaruv sustligi, nazoratning zaifligi, profilaktikaning formal tus olishi, bandlik va ijtimoiylashuv mexanizmlarining yetarli ishlamasligi oqibatida qayta jinoyatchilik saqlanib qolmoqda. Demak, keyingi bosqichda asosiy vazifa resurs ajratish emas, aynan resursdan unumli foydalanish, mas‘uliyatni shaxsiylashtirish, natijani “qog‘ozdagi raqam” emas, balki “ijtimoiylashgan shaxslar soni” bilan o‘lchash madaniyatini qaror toptirishdan iborat bo‘ladi.

